TOSHKENT VILOYATI BEKOBOD TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 29 - fevral 78-10-135-Q/24 Bekobod tuman hokimligi

Tuman hududidagi avtomototransport vositalarini 2024- yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish va uni o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi O‘RQ-348-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli "Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 272-sonli qarori ijrosini ta'minlash borasida Bekobod tumani IIB boshlig‘ining 2023-yil 13-dekabrdagi 4973-sonli xatiga muvofiq tuman hududidagi avtomototransport vositalarini 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish va uni o‘tkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Bekobod tumani ichki ishlar bo‘limining avtotransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish qoida va me’yorlariga amal qilishning nazorati bo‘yicha bo‘linmasi tumandagi transport vositalarini majburiy yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini tashkillashtirsin.

2. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil

avtomobillar, avtobuslar va o‘tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari) odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar - bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi-shatakchi uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

3. Mazkur Qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi

birinchi marta- 1- mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta -1- sentabr - 31 oktabrda o‘tkazilsin.

Yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 2024- yil 1- mart - 30 iyunda o‘tkazilsin.

Jismoniy shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 2024- yil 1-yanvar - 31 avgustda o‘tkazilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalardagi avtotransport vositalarini 2024-yilgi texnik ko‘rigidan o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalarda davlat avtotransport vositalarini 2024- yilgi texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosari (U.Xaqqulov) va Toshkent viloyati hokimligining Yo‘lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti Bekobod tumani vakili:

a) zudlik bilan yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash komissiyalari bilan hamkorlikda, yuridik shaxslar rahbarlarini jalb etgan holda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash hamda uni o‘tkazish chora-tadbirlarini ishlab

chiqsin va amalga oshirilishi ustidan nazorat o‘rnatsinlar;

b) transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida tuman ichki ishlar bo‘limi avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish qoida va me’yorlariga amal qilinishining nazorati bo‘linmasi, mudofaa ishlar bo‘yicha tuman bo‘limi vakillari va yuridik shaxslarning muhandis-texnik xodimlaridan iborat ishchi guruhlar tuzsinlar;

v) tuman ichki ishlar bo‘limi avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish qoida va me’yorlariga amal qilinishining nazorati bo‘linmasi bilan birgalikda faoliyati tugatilgan, mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxona, tashkilot va muassasalar tasarrufida bo‘lgan transport vositalarini, tirkamalarni, yarim tirkamalarni aniqlash hamda ularni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish choralarini ko‘rsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 4-noyabrdagi 482-sonli “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish havfsizligini ta’minlashga doir talablarini tasdiqlash haqida”gi qarori talablarini ijrosini ta’minlash, yo‘lovchilarga samarali transport xizmati hamda ularning xavfsizligini ta’minlash maqsadida, tumandagi barcha tijorat asosida yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tasarrufidagi, ishlab chiqarilgan yili 10 yildan oshgan barcha turdagi avtobus va kichik avtobuslarning majburiy texnik ko‘rigi Olmaliq shahridagi 1-son diagnostika tarmog‘ida o‘tkazilishi tashkillashtirilsin.

8. Tuman ichki ishlar bo‘limining tegishli xizmat xodimlari, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan avtomototransport vositalarini to‘liq majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

9. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvaliga asosan avtobus va kichik avtobuslarni majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash va taqdim etish bo‘yicha yuridik shaxslar rahbarlari va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilsin.

10. Mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxona, muassasa va tashkilot rahbarlari majburiy texnik ko‘rik boshlanishidan kamida 10 kun oldin viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshqarmasining

tumanlararo ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘linmasiga (TRIB) mavjud transport vositalari haqidagi ma’lumotlarni taqqoslash uchun taqdim etilsin.

11. Yil yakuni bo‘yicha texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalari ro‘yxati yilning 1-noyabrigacha elektron va bosma shakllarda shakllantirilib, boshqarma texnika nazorat bo‘limiga taqdim etilsin.

12. Oxirgi uch yil davomida majburiy texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalarining tasdiqlangan ro‘yxatiga asosan avtomototransport vositalari egalarining turar joy manzili bo‘yicha, fuqarolarning turar joy daxlsizligini buzmagan holda, ularning roziligi bilan inventarizatsiyadan o‘tkazilishini ta’minlasin va yaroqsiz deb hisoblangan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 272-sonli “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan ro‘yxatdan chiqarish ishlari amalga oshirilsin.

13. Sug‘urta faoliyati bilan shugulanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tuman ichki ishlar bo‘limi avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish qoida va me’yorlariga amal qilinishining nazorati bo‘yicha bo‘linmasi bilan hamkorlikda majburiy transport vositasining sug‘urtasi to‘lovlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirish choralarini ko‘rsin.

14. Tuman “Bekobod ovozi” gazetasi (Yu.Ergashov)ga:

- transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish yo‘l harakati havfsizligini ta’minlashning asosiy garovi ekanligini targ‘ib qilib borish tavsiya etilsin.

15. Bekobod tuman hokimining 2023-yil 6-yanvardagi “Tuman hududidagi transport vositalarini 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 5-10-135-Q/23-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

16. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

17. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari U.Xaqqulov zimmasiga yuklatilsin.

Bekobod tumani hokimi v.b **Sh.Do'sbekov**

Bekobod tuman hokimining
2024-yil 29-fevraldagi
78-10-135-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Bekobod tumani xo‘jalik, korxona va tashkilotlardagi avtotransport vositalarini 2024-yil texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiya

TARKIBI

F.Quydimurotov - Tuman IIB YHXB boshlig‘i

Komissiyaa’zolari

X.Shukurov - Tuman “Vatanparvar” tashkiloti O‘STK mexanigi, komissiya raisi o‘rinbosari

D.Abduvoxidova - Tuman mudofaa aishlar bo‘limi rezervchilari bo‘limi boshlig‘ining yordamchisi

X.Yaxshiboyev - “Sarbon” 2-avto jamg‘arma MChJ navbatchi mexanigi

Bekobod tuman hokimining
2024-yil 29-fevraldagi
78-10-135-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Bekobod tuman hududidagi avtoxo‘jalik va korxona, tashkilotlarda mavjud bo‘lgan avtomototransport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Korxona va xo‘jaliklarning nomi	Vazirlik shifr	Texnik ko‘rik o‘tkazish joyi	Texnik ko‘rik o’tkazish kuni
1	Kurbonov Xolikulorzusixk	09999	tuman IIB YXXB	01.03.2024
2	Muyinkum-Agro f/x	09999	tuman IIB YXXB	01.03.2024
3	Naymaninvest MChJ	09999	tuman IIB YXXB	01.03.2024
4	Ravon servis dizayn x/k	09999	tuman IIB YXXB	01.03.2024
5	Baxrom baraka omad x/k	09999	tuman IIB YXXB	02.03.2024
6	Bekobodtum.agroservis v iktisodiyot KXK	03903	tuman IIB YXXB	02.03.2024
7	Profi avto treding MChJ	09999	tuman IIB YXXB	02.03.2024
8	Abdubakir fayz agro x/k	09999	tuman IIB YXXB	02.03.2024
9	Abdushukur doniyor agro f/x	06444	tuman IIB YXXB	02.03.2024
10	Agrotexkurilish montaj invest MChJ	09999	tuman IIB YXXB	05.03.2024
11	Anvarbek Baxodir servis MChJ	09999	tuman IIB YXXB	05.03.2024
12	Askar-Otaxus.firma	09999	tuman IIB YXXB	05.03.2024
13	Bek omad fayz agro f/x	06444	tuman IIB YXXB	05.03.2024
14	Bozorboy f/x	06444	tuman IIB YXXB	05.03.2024
15	Dovud gaz kurilish MChJ	09999	tuman IIB YXXB	06.03.2024
16	Dulan kashka savdoxk	09999	tuman IIB YXXB	06.03.2024
17	Obod Xurshida bonu fx	06444	tuman IIB YXXB	06.03.2024
18	Umarbek f/x	06444	tuman IIB YXXB	06.03.2024
19	Elikuzi-ota f/x	06444	tuman IIB YXXB	06.03.2024
20	Bekobodagro klass azamat texnika MChJ	09999	tuman IIB YXXB	06.03.2024
21	Bekmaxamad Baymatov f/x	06444	tuman IIB YXXB	07.03.2024
22	Bekobodtum.sanoatva transport KXK	03903	tuman IIB YXXB	07.03.2024
23	Bekobod agro saxovati f/x	06444	tuman IIB YXXB	07.03.2024
24	Bek.tum.Xokimiyati	09999	tuman IIB YXXB	08.03.2024
25	Gayratfayzagro f/x	06444	tuman IIB YXXB	08.03.2024
26	DVZ-ta’mirlash	09999	garajda	08.03.2024
27	Maman-Ulugbek x/k	09999	tuman IIB YXXB	08.03.2024
28	Safarxojiinvestxk	09999	tuman IIB YXXB	08.03.2024
29	Tarakkiyot servis savdo MChJ	09999	tuman IIB YXXB	08.03.2024
30	Bekobodtumangaz	07244	garajda	09.03.2024
31	Bek.tum.davlat veterinariya bulimi	03873	tuman IIB YXXB	13.03.2024
32	Olovuddin omad f/x	06444	tuman IIB YXXB	13.03.2024
33	Uz-oyna	09999	tuman IIB YXXB	13.03.2024
34	XamrakulovXaydaraliXoji f/x	06444	tuman IIB YXXB	13.03.2024
35	Bekobod tuman solikinspeksiyasi	70414	tuman IIB YXXB	14.03.2024
36	Bekobod tumani moliya bulimi	04063	tuman IIB YXXB	14.03.2024
37	Zafar pochta alokabulimi	03573	tuman IIB YXXB	14.03.2024
38	Prokuratura	05364	tuman IIB YXXB	14.03.2024
39	Saydiniso-opa f/x	06444	tuman IIB YXXB	14.03.2024

40	Bekobodtum. IIB	08354	garajda	15.03.2024
41	Sharaffayz f/x	06444	tuman IIB YXXB	16.03.2024
42	DVZ paxta tozalash zavod	09999	tuman IIB YXXB	16.03.2024
43	Xalk banki	05054	tuman IIB YXXB	16.03.2024
44	Kishlokxujalikkimyo	08654	garajda	19.03.2024
45	Bogishamoltongifayz f/x	06444	tuman IIB YXXB	20.03.2024
46	Istiklol f/x	06444	tuman IIB YXXB	20.03.2024
47	Urmonxujaligi	09999	tuman IIB YXXB	20.03.2024
48	Zafarelektrtarmoklari	01013	garajda	20.03.2024
49	Bekobodtum. YXPTFK	07304	garajda	22.03.2024
50	Xosgisht zavodi	09999	garajda	23.03.2024
51	Bekobodtumani DSNEM	03873	garajda	26.03.2024
52	Matlubotsavdo A/J	09999	garajda	27.03.2024
53	MKT Vatanparvar	04864	garajda	27.03.2024
54	BoltabayevSherbuta f/x	06444	tuman IIB YXXB	28.03.2024
55	Davrshamolixus.korx.	09999	tuman IIB YXXB	28.03.2024
56	Kurkam MChJ	09999	tuman IIB YXXB	28.03.2024
57	Moxidil-Nodirabonu x/k	09999	tuman IIB YXXB	28.03.2024
58	Zafarkurilishinvest MChJ	09999	garajda	29.03.2024
59	Bek-Madad-kurilish MChJ	09999	garajda	30.03.2024
60	Bekobodozuka yem savdobirlashmasi MChJ	09999	tuman IIB YXXB	03.04.2024
61	Bekobod pedagogika kolleji	03903	tuman IIB YXXB	03.04.2024
62	Bekobodtum DVZ maishiyxizmat KXK	03903	tuman IIB YXXB	03.04.2024
63	ZarafshonFayz MChJ	09999	tuman IIB YXXB	03.04.2024
64	Muxiddin-Xusniddin MChJ	09999	tuman IIB YXXB	03.04.2024
65	Nodirabegim MChJ	09999	tuman IIB YXXB	03.04.2024
66	Bekobodtumani BK va AIMKM	03873	tuman IIB YXXB	04.04.2024
67	Bekobodtumaniyongingakarshikurashishjamiyati	09999	tuman IIB YXXB	04.04.2024
68	Arabboy-Jamshidxk	09999	tuman IIB YXXB	05.04.2024
69	Bekobodovoziijtimoiy gazeta	09999	tuman IIB YXXB	05.04.2024
70	Bekobodtrade + MChJ	09999	tuman IIB YXXB	05.04.2024
71	Diyonat-Karvoni x/k	09999	tuman IIB YXXB	05.04.2024
72	Yusufjon-Boburjon servis x/k	09999	tuman IIB YXXB	05.04.2024
73	Bekobodkurgoni FX	06444	tuman IIB YXXB	06.04.2024
74	Istikbol-invest MChJ	09999	tuman IIB YXXB	06.04.2024
75	Mavlonova Musharraf x/k	06444	tuman IIB YXXB	06.04.2024
76	MarvaridXos baraka x/k	09999	tuman IIB YXXB	06.04.2024
77	Sadakayragoch MChJ	09999	tuman IIB YXXB	06.04.2024
78	SheriyevMamadalifx	06444	tuman IIB YXXB	06.04.2024
79	Bekobodtum. KXKXK	03903	tuman IIB YXXB	09.04.2024
80	Bekobodtumaniobodonlashtirishboshkarmasi	09999	garajda	10.04.2024
81	Bekobod-non savdo x/k	09999	tuman IIB YXXB	11.04.2024
82	BobojonovAbdurasul ChP	09999	tuman IIB YXXB	11.04.2024
83	BoburGulsanamfayzok	09999	tuman IIB YXXB	12.04.2024
84	Gayratomadagro f/x	06444	tuman IIB YXXB	12.04.2024
85	Zafar ATS x/k	01354	garajda	13.04.2024
86	Sarbon XJ /avtojamlanma/	01354	garajda	20.04.2024
87	DVZ davlatovurmonxujaligi	09999	tuman IIB YXXB	18.04.2024
88	MaxsusMetallurgremont MChJ	09999	tuman IIB YXXB	18.04.2024
89	MunavvarRaimberdifx	06444	tuman IIB YXXB	18.04.2024
90	Ok-chashma XK	09999	tuman IIB YXXB	19.04.2024
91	Xakikat kuchi f/x	06444	tuman IIB YXXB	19.04.2024

92	Shirin fayzsavdoxk	09999	tuman IIB YXXB	19.04.2024
93	Dilxushdadilbekadiz f/x	06444	tuman IIB YXXB	22.04.2024
94	Differensial goldxk	09999	tuman IIB YXXB	22.04.2024
95	Javoxiravtotex MChJ	09999	tuman IIB YXXB	22.04.2024
96	Jaloliddinagrofayz x/k	09999	tuman IIB YXXB	22.04.2024
97	Zafar briket standart MChJ	09999	tuman IIB YXXB	22.04.2024
98	Ziyoagro avto tex servis MChJ	09999	tuman IIB YXXB	22.04.2024
99	Ishonchkurilish plyus MChJ	09999	tuman IIB YXXB	22.04.2024
100	SalimbekImronbek d/x	06444	tuman IIB YXXB	22.04.2024
101	Safarali Tursunov agro f/x	06444	tuman IIB YXXB	22.04.2024
102	Abdullajonishonchfayz MChJ	09999	tuman IIB YXXB	22.04.2024
103	Bekobodtum 11-XYoXK	08354	garajda	22.04.2024
104	Istikbolxk	09999	tuman IIB YXXB	22.04.2024
105	Shoxruxbek-Shaxzodbek f/x	06444	tuman IIB YXXB	22.04.2024
106	BokiyevaNazira f/x	06444	tuman IIB YXXB	22.04.2024
107	Sayyora-pari f/x	06444	tuman IIB YXXB	22.04.2024
108	UzenboyevShavkat f/x	06444	tuman IIB YXXB	22.04.2024
109	XolisBarakat servis MChJ	09999	garajda	22.04.2024
110	AzimJavlonfayz x/k	09999	tuman IIB YXXB	01.05.2024
111	Mega farmomad x/k	09999	tuman IIB YXXB	01.05.2024
112	MirzoToshmurod f/x	06444	tuman IIB YXXB	01.05.2024
113	MoxinurZafar servis MChJ	09999	tuman IIB YXXB	01.05.2024
114	Temir-Farxodsavdofayz x/k	09999	tuman IIB YXXB	01.05.2024
115	Toxir-Samandarfayzdx	06444	tuman IIB YXXB	02.05.2024
116	Trust treyd lider x/k	09999	tuman IIB YXXB	02.05.2024
117	UmidjonBaxodiragro f/x	06444	tuman IIB YXXB	03.05.2024
118	FeruzRajabovfayz f/x	06444	tuman IIB YXXB	03.05.2024
119	Xamzatongifayz f/x	06444	tuman IIB YXXB	03.05.2024
120	Xosziyo baraka f/x	06444	tuman IIB YXXB	03.05.2024
121	ShadiyevAbdurauf XK	09999	tuman IIB YXXB	03.05.2024
122	Erkinjon-Tulkinjon x/k	09999	tuman IIB YXXB	04.05.2024
123	Yusupov Obid fayz f/x	06444	tuman IIB YXXB	04.05.2024
124	Marasulov Alisher XK	09999	tuman IIB YXXB	07.05.2024
125	Real Agro Servis	09999	tuman IIB YXXB	07.05.2024
126	Diyorbek progress invest MChJ	09999	tuman IIB YXXB	07.05.2024
127	Rustambek super agro servis DX	06444	tuman IIB YXXB	07.05.2024
128	Bekobod logistik MChJ	09999	tuman IIB YXXB	08.05.2024
129	MaxmudjonOmad f/x	06444	tuman IIB YXXB	08.05.2024
130	AfzalbekOrzu	09999	tuman IIB YXXB	08.05.2024
131	NormurodovAbdushukur f/x	06444	tuman IIB YXXB	08.05.2024
132	Zafartarakkiyot biznes XK	09999	tuman IIB YXXB	14.05.2024
133	Bekobodtumaniagromonitoringmarkazi	09999	tuman IIB YXXB	14.05.2024
134	Chorvador Baraka parvoz d/x	06444	tuman IIB YXXB	14.05.2024
135	Bekobodtumanimajburiyijrobyurosi	09999	tuman IIB YXXB	14.05.2024
136	MaxFayzServis MChJ	09999	tuman IIB YXXB	16.05.2024
137	MGF AgroTrans MChJ	09999	tuman IIB YXXB	16.05.2024
138	Davrishonchomad d/x	09999	tuman IIB YXXB	16.05.2024
139	Bekobodtumanifermerlarkengashi	06444	tuman IIB YXXB	16.05.2024
140	Arslonbek-Gulomjonagro f/x	06444	tuman IIB YXXB	16.05.2024
141	AbduraximIbroximsavdo x/k	09999	tuman IIB YXXB	17.05.2024
142	Bekobodchorvainvest d/x	06444	tuman IIB YXXB	17.05.2024

143	KurbonovNuraliomadfayz d/x	06444	tuman IIB YXXB	17.05.2024
144	Mubinasavdofarmm MChJ	09999	tuman IIB YXXB	17.05.2024
145	BerdikulovaRuzixon d/x	06444	tuman IIB YXXB	17.05.2024
146	AvtomotoxavaskorlarBekobodtumani	09999	tuman IIB YXXB	17.05.2024
147	OxunovAbdumalik f/x	06444	tuman IIB YXXB	20.05.2024
148	Abduraxim-Abdullox-Feruzbekishonchfayz MChJ	09999	tuman IIB YXXB	20.05.2024
149	Boybuta f/x	06444	tuman IIB YXXB	20.05.2024
150	Real proyekt blissagro d/x	06444	tuman IIB YXXB	20.05.2024
151	Shaxrizodasalomatlik XK	09999	tuman IIB YXXB	20.05.2024
152	MadaminovJasurbeksavdo XK	09999	tuman IIB YXXB	20.05.2024
153	Nefrit Orxideya XK	09999	tuman IIB YXXB	21.05.2024
154	Bexruzbek-Ishonch DX	06444	tuman IIB YXXB	21.05.2024
155	Ulugbek Mujizasi FX	06444	tuman IIB YXXB	21.05.2024
156	Ravshan-SardoragrofayzFX	06444	tuman IIB YXXB	21.05.2024
157	Bekobodtumaniirrigatsiyabulimi	09999	tuman IIB YXXB	21.05.2024
158	Xosilot Buranov Rayim FX	06444	tuman IIB YXXB	21.05.2024
159	AshurovTursunboy DX	06444	tuman IIB YXXB	22.05.2024
160	Girot FX	06444	tuman IIB YXXB	22.05.2024
161	Bekobodtongi FX	06444	tuman IIB YXXB	22.05.2024
162	Turdialibekagrogalaba DX	06444	tuman IIB YXXB	22.05.2024
163	Yayra-XusnoraFayz MChJ	09999	tuman IIB YXXB	22.05.2024
164	Uzagrosugurta AJ	09999	tuman IIB YXXB	22.05.2024
165	Muxammadiyor super invest MChJ	09999	tuman IIB YXXB	22.05.2024
166	Bekobodtumani BKM	09999	tuman IIB YXXB	22.05.2024
167	Sharifov Sanjarbekagro FX	06444	tuman IIB YXXB	22.05.2024
168	Parizoda super invest XK	09999	tuman IIB YXXB	22.05.2024
169	Zafar Best oil MChJ	09999	tuman IIB YXXB	22.05.2024
170	BekobodtumaniXalkta’limibulimi	03903	tuman IIB YXXB	22.05.2024
171	Zuxriddinomad XK	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
172	Shoxrux-Parviz MChJ	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
173	Bekobodtumani YoXB	08354	tuman IIB YXXB	23.05.2024
174	TulkinFayz XK	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
175	BekobodtumaniDalvarzin MXKXK	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
176	Zafar NICE servise MChJ	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
177	Afzalbek-Fayz-Omad" MChJ	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
178	Dustlik XK	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
179	"Tozaxudud" DUK Bekobodtumanifiliali	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
180	Bekobodtumanikishlokvasuvxujaligibulimi	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
181	Zafar shagal savdo MChJ	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
182	Zaxro Grand XK	09999	tuman IIB YXXB	23.05.2024
183	Shoxrux Avto Trans MChJ	09999	tuman IIB YXXB	24.05.2024
184	Status Nur MChJ	09999	tuman IIB YXXB	24.05.2024
185	Gulzira-GulyoraFayz XK	09999	tuman IIB YXXB	24.05.2024
186	GulruxsorDilshodaOmadFayz DX	06444	tuman IIB YXXB	24.05.2024
187	Bekobod-super invest MChJ	09999	tuman IIB YXXB	24.05.2024
188	Nodirabegiminvestrivoj MChJ	09999	tuman IIB YXXB	24.05.2024
189	IstikbolXosIshonch servis MChJ	09999	tuman IIB YXXB	24.05.2024
190	Bekobodtumani FDTEK	09999	tuman IIB YXXB	24.05.2024
191	Gulzoda-Niginabonu MChJ	09999	tuman IIB YXXB	24.05.2024
192	Bekobodtumanimaktabgachata’limbulimi	03903	tuman IIB YXXB	24.05.2024

193	Bekobod avtobus-taksi saroyi MChJ	01354	garajda	24.05.2024